

MILLIY IQTISODIYOT VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA UNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mehmonaliyev Doniyorjon Zoxidjon o'g'li
Toshkent amaliy fanlar universiteti, IQ-25-06 M guruhi magistri

Annotatsiya

Ushbu maqolada milliy iqtisodiyot tushunchasining ta'rifi va uning asosiy xususiyatlari yoritib berilgan. Milliy iqtisodiyot holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar keltirilgan. Raqamli transformatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiy barqarorlik, yalpi ichki mahsulot (YaIM), YaIM ning tarkibiy tuzilishi, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, Big Data, Sun'iy intellekt, Blockchain.

Bozor tizimi barcha mamlakatlar iqtisodiyotiga xos bo'lib, u o'z doirasini to'xtovsiz kengaytirib, ayniqsa, barqarorlik darajasiga bog'liq holda taraqqiyot jarayonini tezlashtirib bormoqda. Taraqqiy etgan, eng qudratli iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar asosan bozor usulining aralash iqtisodiyot modeli tufayli xalq farovonligini ta'minlashda yuqori ko'rsatkichlarga erishmoqdalar.

Makroiqtisodiy barqarorlik kelgusida iqtisodiy o'sish va yuksalish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun avvalo, YaIM ishlab chiqarishning pasayishi to'xtatiladi. Keyinchalik YaIM va yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi bo'yicha barqaror o'sish ta'minlanadi. Agar YaIM ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari aholi soni o'sish sur'atlaridan ustun bo'lishiga erishilsa, unda yanada yaxshi bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish hajmining o'sishi iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining oshishi, inflyatsiyaning past darajasi, YaIM hajmida jamg'arish va investitsiya ulushining o'sishi va boshqa sifat ko'rsatkichlari bilan birga kechishi lozim.

Milliy iqtisodiyot – taraqqiyotning “O'zbek modeli” to'g'risida tasavvur beradigan asosiy ijtimoiy - iqtisodiy kategoriyadar, g'oya, fikr va mulohazalar, amaliy yondashuvlar jamlangan bo'lib, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirishni jadallashtirish, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashi, xalqaro iqtisodiy tizim bilan integratsiyalashuviga va terrorizmga qarshi kurashishda hamkorlik bilan bog'liq ko'plab muhim va dolzarb masalalar ta'riflangan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida milliy iqtisodiyotga muvofiqlashgan quyidagi vazifalarni yoritish ko'zda tutilgan: milliy iqtisodiyotning boshqaruv tizimi, iqtisodiyot rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlarini tartibga solish, pul va kredit tizimi, mehnat bozori va uni tartibga solish muammolari, atrof-muhitni muhofaza qilish.

Milliy iqtisodiyot jami sohalar, uyushmalar, korxonalar, tashkilotlarning yig'indisi bo'lib, ular yagona iqtisodiy tizimga, umumiy qonunlarga va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda o'zaro birlashgan. Bu o'rinda qayd etish joizki, milliy iqtisodiyot bozor iqtisodiyoti munosabatlarini o'rganuvchi barcha aniq fanlar nazariyasiga, uslubiga tayanadi. Iqtisodiyotni samarali tartibga solish bilan uning shakllanishiga qulay iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy vaziyat yaratiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalari shuni ko'rsatmoqdaki boshqaruvda tezkor ma'lumot va axborotlar almashinuvini ta'minlash, muammolarni oldindan kuzatish va bartaraf etish, bozor

xolatini o'rganish va tezkor qarorlar qabul qilishda raqamli texnologiyalardan foydalanish va raqamlashtirish katta samaralar bermoqda.

Dunyoda raqamli texnologiyalar yangi paydo bo'la boshlagan vaqtlarda, "raqamlashtirish" ("digitization") atamasi qo'llanilgan bo'lib, uni birinchi bor muomalaga kiritgan shaxs Robert Machal bo'lib, u 2014 yil Shimoliy Amerikada chop etilgan maqolasida "jamiyatni raqamlashtirish"ni kompyuter yordamida tadqiqotning cheklovlari va istiqbollari haqida gapirgan. Oxirgi vaqtlarda ko'plab rivojlangan davlatlar ilmiy izlanuvchilari va ilmiy tadqiqot markazlari "raqamlashtirish" va "raqamlashtirilish" bo'yicha tadqiqotlar o'tkazmoqdalar.

"Raqamlashtirish" va "raqamli transformatsiya" tushunchalarining ta'riflari bugungi kunda raqamlashtirish va raqamli transformatsiyalashning asosiy maqsadlarini o'z ichida qamrab olgan. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ta'riflar ro'yxati to'liq emas va ushbu so'rovga kiritilmagan ushbu tushunchalarning boshqa talqinlari ham mavjud.

Barcha sohalaridagi tashkilotlarni raqamlashtirishga yangi raqamli texnologiyalar, jumladan, Big Data analitikasi, robotlar, Sun'iy intellekt, IT, Blockchain, bulutli hisoblash va hokazolar sabab bo'lmoqda. Linz Joxannes Kepler universiteti tadqiqotchisi Kxin Xoning fikriga ko'ra, bugungi kunda kompaniyalar raqamlashtirish jarayoniga jalb qilinishi va raqamli transformatsiyani o'z ichiga olishi kerak, chunki raqamli texnologiya biznesda muhim yangilanishlarni kiritishi mumkin, masalan, mijozlar tajribasi va ishtirokini oshirish, biznes operatsiyalarini optimallashtirish va hatto raqamlashtirish mutlaqo yangi biznes modellarini yaratishga yordam beradi. Aks holda, firma qattiq raqobatga duch kelishi va zamonaviy bozorda omon qolish uchun zaiflashishi mumkin.

Raqamlashtirish zamonaviy bozorni o'zgartirmoqda va shakllantirmoqda va uning asosiy xususiyatlaridan biri o'zgarishlarning favqulodda tezligi, o'zgaruvchanligi (doimiy va ommaviy o'zgarish) va jismoniy, ijtimoiy va raqamli dunyoning o'zaro bog'liqligi va yaqinlashuvining ortib borayotganidir.

McKinsey kompaniyasi tadqiqotchisi Mett Reylining fikricha yangi maxsulotlar yaratish jarayonlarini raqamli transformatsiyalashni amalga oshirish "mijozlar talabini yaxshi tushunish, raqamli modellashtirish, yangi maxsulotlar yaratishni tezlashtiradi" deb ta'kidlaydi.

N'yu-Ulm Amaliy fanlar universiteti tadqiqotchisi D.Shallmo va Linz Joxannes Kepler universiteti tadqiqotchisi A.Uillyemslarning fikricha raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi kompaniyalarning o'z bizneslarini yuritish uslubini tubdan o'zgartirdi va yangi bozorlarni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

G.Tomasning fikricha, bugungi kunda an'anaviy biznes strategiyasi butun dunyo bo'ylab yangi avlod texnologik tashkilotlarining paydo bo'lishi bilan yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun samarasiz bo'lib bormoqda. Ilgari texnologiya kompaniya menejerlari tomonidan firma o'z biznes strategiyasini belgilaganidan keyin tanlash imkoniyati sifatida qabul qilingan bo'lsa, bugungi kunda texnologiya mijozlar tajribasini tubdan o'zgartirishi va yaxshilashi, tashkilot xodimlarining imkoniyatlarini oshirishi va xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Endi kompaniyalar uchun nafaqat zamonaviy bozor texnologiyalari tendentsiyalariga rioya qilish kerakligini, balki kelajakda mavjud bozorni qayta shakllantirish uchun qanday texnologiya potentsialiga ega ekanligini tushunish juda muhimdir.

Linz Joxannes Kepler universiteti tadqiqotchisi Larsson Viitaojaning so'nggi tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda mijozlar qiymatga yo'naltirilgan bo'lib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida kompaniyalar yangi mahsulot va xizmatlarni taklif qilishlari va tijoratlashtirishlari, uning tizimlari va jarayonlarini optimallashtirishlari, monoton ish

jarayonlarini avtomatlashtirishlari va yangi raqamli biznes modellarini ishlab chiqishlari mumkin. Bundan tashqari, kompaniyaning biznes jarayonlarini raqamlashtirish qo'shimcha mijozlar qiymatini yaratishga va mijozlar tajribasini oshirishga yordam beradi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotchilarning tadqiqotlari va tajribalari natijalarini o'rgangan xolda, raqamli texnologiyalarni joriy etish yoki raqamli transformatsiyalash deganda, korxonalar faoliyat yuritish jarayonlari: korxona boshqaruv tizimi, yangi maxsulotlar yaratish, ishlab chiqarish, ta'minot, marketing va logistika jarayonlarini avtomatlashgan va raqamli texnologiyalarni qo'llagan xolda kompaniyaning raqobatbardoshligini oshirish va strategik maqsadlarga erishish, iqtisodiy samaradorlik mezoniga javob berishga qaratilgan, mijozlarga yo'naltirilgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlarni amalga oshirishdir.

Umuman, raqamli transformatsiya mijozlarning xatti-harakatlari yo'nalishlarini aniqlaydi hamda biznesni rivojlantirish va o'sish yo'nalishlarini belgilaydi. Umuman olganda, raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli joriy etilishi korxona va mijozlarning integratsiyalashuviga, operatsion samaradorlikni oshirishga hamda korxonalarning bozorda raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

Milliy iqtisodiyot iqtisodiyotning ham milliy, ham iqtisodiy qismlarini birlashtiradi. "Milliy" so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, natsio- xalq so'zini anglatadi. "Iqtisodiyot" esa grekcha so'zdan olingan bo'lib, oikonomike - uy xo'jaligini boshqarish san'ati ma'nosini anglatadi. Milliy iqtisodiyot - bu tarmoqlar xususiyatini birlashtirgan, mujassamlashtirgan majmuidir. Milliy iqtisodiyot - bu mamlakat xo'jaligini, uning tarkibi, uning ayrim elementlarini o'zaro bog'liqligidir. Milliy iqtisodiyot mamlakat iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatish shakli bo'lib, mamlakat hududida yashovchi asosiy millat (xalq)ning tarixan shakllangan va rivojlanayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari bilan belgilanadigan, mahalliy, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan xo'jalik tarmoqlari, korxonalari, mehnat uyushmalari, hududlari va mintaqalari tizimidir.

Iqtisodiyot, milliy deb atalsa ham, u ma'lum bir millat manfaatlarini ifodalamay, balki umummilliy manfaatlariga xizmat qiladi. Inson boshqa jonzoatlardan aql-idroki bilan ajralib turadi. Inson biologik mavjudot sifatida ovqat eyish, uxlash, dam olib, o'z kuchini tiklash, o'zini issiq-sovuqdan asrash ehtiyojlariga ega. Mazkur ehtiyojlar moddiy shaklda - kiyim-kechak, oziq-ovqat, turar-joy va boshqalar shaklida ifoda etiladi. Moddiy ehtiyojni qondirish uchun zarur ne'matlarni ishlab chiqarish kerak.

Iqtisodiy munosabatlar zarurat hisoblanadi. Rejali iqtisodiyot sharoitida xalq xo'jaligi degan tushuncha keng tarqalgan edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa uning o'rniga milliy iqtisodiyot so'zi ko'proq ishlatilmoqda. Bu so'zlar bir xil lug'aviy ma'noga ega bo'lsalarda iqtisodiy-statistik talqinda bir biridan farq qiladi.

Xalq xo'jaligi deganda mamlakat iqtisodiyotida ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida shakllangan moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish tarmoqlari yig'indisi tushuniladi. Ijtimoiy mulkchilikka asoslangan rejali xo'jalik sharoitida uning faoliyat natijasi sifatida yalpi ijtimoiy mahsulot gavdalanadi. Bu ko'rsatkich moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari va ularga xizmat ko'rsatish sohasida yaratilgan yalpi mahsulotlarning arifmetik yig'indisi hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot tushunchasi bundan farq qiladi. Mamlakatda funktsional mehnat taqsimoti natijasida bir xil turdagi iqtisodiy faoliyatlar asosida shakllangan ishlab chiqarish tarmoqlari, sohalari bir-biri bilan izchil va uzviy bog'lanib, yagona ijtimoiy iqtisodiyotni barpo etadilar. Ana shu yaxlitlik nuqtai-nazaridan ijtimoiy iqtisodiyot milliy iqtisodiyot deb ataladi.

Demak, bu holda milliy iqtisodiyot tarmoqlar ketma-ketligida hosil bo'lgan to'plam sifatida emas, balki o'zaro iqtisodiy birikish natijasida yuzaga kelgan bir butun organizm sifatida

talqin etiladi. Milliy iqtisodiyot faoliyatining natijasi barcha tayyor mahsulotlar va xizmatlardan iborat bo'lib, ular pirovard natijada iste'mol qilinadi yoki iste'mol qilishga mo'ljallanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. Lex uz.
2. Беркинов Б., Маматова Ф. Макроиктисодий барқарорликни таъминлаш йўллари. Т.: "Иқтисодиёт" 2011.
3. Yo'ldoshev Z.Y., Xalilova X.T. Milliy va jahon iqtisodiyoti. Т.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2014.
4. Yo'ldoshev Z. Milliy iqtisodiyot.Т.: "Mehnat", 2004.
5. Khin Ho, "Digital transformation of Business Models in the bank sector: a multiple case study", Johannes Kepler University Linz, october 2020 y
6. Urbach & Röglinger, 2019; Zaki, 2019, Digitalization Cases - How Organizations Rethink Their Business for the Digital Age, Springer International Publishing, Cham, Switzerland ISBN: 978-3-319-95272-7
7. Schallmo & Williams, Digital Transformation of Business Models-Best Practices, Enablers and Roadmap, July 2018, Conference: XXVIII ISPIM Innovation Conference – Composing the Innovation Symphony, Austria, Vienna on 18-21 June 201 At: Vienna